

## **Yotoqxonadagi talabalar bilan muloqot**

Kecha 3-talabalar turar joyiga SXTE va B fakulteti talabalar bilan buxgalteriya hisobi va audit kafedrasи о'qituvchilari talabalar bilan tushuntirish ishlari olib bordi. Talabalar turar joyida SXTE va B fakulteti yashovchi talabalar bilan samimiy muloqot uyushtirildi va Talabalar turar joyida yashovchilar amal qiladigan ichki tartib qoidalariga, umum e'tirof etilgan axloq-odob qoidalari va belgilangan ichki tartib qoidalarga so'zsiz amal qilishlari, shuningdek, TTJda istiqomat qilayotgan yashovchilar o'zaro samimiy, ahil munosabatda bo'lishi kerakligi hamda Talabalar navbatchilik jadvaliga binoan oshxona, qavat va kirish joylarida navbatchilik qilishlari, dam olish joylarida namunali tozalikni ta'minlash kerakligi aytilri.



Ayni paytda talabalar yashab turgan xonasi va boshqa umumiy foydalanish joylarini har doim toza va tartibli tutishi uchun shaxsan javobgar ekanligi, umumiy foydalanish joylariga o'rnatilgan yoritgichlar, elektr plitalarini buzmaslik, yuvinish xonasi, oshxona hamda ma'naviyat va ma'rifat xonalaridan to'g'ri foydalanish kerakligi tushuntirib o'tildi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**